

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Abdualiyev	
Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar	648
M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova	
Farg'ona shahar tabiiy yer osti buloq suvlarining gidroekologik holati.....	652
M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev	
Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili	657
T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Ussonov, O.A.Turdiboyev	
Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981)	662
M.X.Akbarova, O.Turdiboyev	
<i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi	667
M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov	
Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024)	670
M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov	
Bo'yoqbop drok- (<i>Genista tinctoria</i>) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari	674
G.N.Shokirova	
Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash	677
I.P.Уринбоев, Ф.Р.Жумабоева	
Опыление и плодоношение цветков вида липа (<i>Tilia tomentosa</i>), интродуцированного в ферганскую урбанofлору.....	682
M.A.Давидов, И.Р.Уринбоев	
Опыление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi	689
M.A.Masodiqova	
Eribidae oilasi (<i>Limantria dispar</i>) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi	692
V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev	
Shohimardonsoy havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
M.Q.Asadova	
Poliploidiya va uning boshqoli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati	698
M.M.Mamajonova, V.Mahmudov	
Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiyasi va istiqbollari	701
S.M.Xaydarov, F.N.Mingboyev	
Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvo'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish	703
S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboyev	
Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish	706
Z.A.Yusupova	
Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasini	709
Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov	
Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
Z.A.Yusupova	
O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari	717
M.P.Yuldashova	
Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida)	721
M.K.Asadova	
Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования	726
B.Mahmudov, M.K.Jabbaraliyeva	
Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия	729



UO'K: 58(092)+929

XAMIDOV G'ULOM XAMIDOVICH (1936–2024)

ХАМИДОВ ГУЛЯМ ХАМИДОВИЧ (1936–2024)

KXAMIDOV GULAM KXAMIDOVICH (1936–2024)

Akbarova Muhayyo Xusanovna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, dotsentiTurdiboyev Obidjon Abdumalik o'g'li^{2,3} ²Qo'qon davlat pedagogika instituti, b.f.f.d. (PhD)³O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutiRuzimatov Ruzali Yoqubovich⁴ ⁴Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorantXolikulov Murodjon Roboljonovich⁵ ⁵Farg'ona davlat universiteti, dotsenti**Annotatsiya**

Maqola O'rta Osiyo asal-shirali o'simliklarining ajoyib tadqiqotchisi G'ulom Xamidovich Xamidov xotirasiga bag'ishlangan. Professor G'ulom Xamidovich dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutida laborant, kichik ilmiy xodim, laboratoriya mudiri, so'ngra 1991 yildan umrining oxirigacha Farg'ona davlat universitetida kafedra mudiri va professor lavozimlarida ishlagan.

Аннотация

Статья посвящена памяти выдающегося исследователя медоносов Средней Азии Гуляма Хамидовича Хамидова. Профессор Гулям Хамидович сначала работал лаборантом, младшим научным сотрудником, заведующим лабораторией в Институте ботаники Академии наук Узбекистана, затем с 1991 года и до конца жизни работал профессором и заведующим кафедрой Ферганского государственного университета.

Abstract

The article is dedicated to the memory of the excellent researcher of the honey plants of Central Asia Gulyam Khamidovich Khamidov. Professor Gulom Khamidovich first worked as a laboratory assistant, junior researcher, and head of the laboratory at the Institute of Botany of the Academy of Sciences of Uzbekistan, and from 1991 until the end of his life, he worked as a professor and head of the department at Fergana State University.

Kalit so'zlar: asal-shirali o'simliklar, bibliografiya, Farg'ona vodiysi, flora, O'rta Osiyo.

Ключевые слова: медоносные растения, библиография, Ферганская долина, флора, Средняя Азия.

Key words: honey plants, bibliography, Ferghana valley, flora, Central Asia,

KIRISH

O'zbekiston botanik olimlari tomonidan nafaqat O'zbekiston florasini, kamyob va endem o'simlik turlari, xo'jalik ahamiyatiga ega dorivor, yem-xashak, asal-shirali turlari, xususan O'rta Osiyo florasini ham aynan shu yo'nalishda chuqur tadqiq etilgan. Ana shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan O'zbekiston va O'rta Osiyo asal-shirali o'simlik turlarini tadqiq etgan mashhur botanik olimlardan biri professor G'ulom Xamidovich Xamidov hisoblanadi.

G'ulom Xamidovich 1936-yil 7-fevralda Andijon viloyati, Andijon tumani, Zavrak qishlog'ida tug'ilgan. 1954-yilda o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlab, Samarqand davlat universitetining Biologiya va tuproqshunoslik fakultetining Botanika mutaxassisligiga o'qishga kirgan [1]. U 1959-yilda ushbu oliy o'quv yurtini tamomlab, shu yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutida laborant lavozimida ish boshlagan. U ishlash davomida Botanika institutida kichik ilmiy xodim, Geobotanika laboratoriyasi mudiri lavozimlarida ishlagan [2].



G'ulom Xamidovich Xamidov
(Botanika va biotexnologiya kafedrasida ish jarayoni, 2023-yil)

1967-yilda “Tog’li Bo’stonliq asal-shirali o’simliklari va asalarichilikni oziq-ovqat bilan ta’minlashni tashkil etish” mavzusida biologiya fanlari bo’yicha nomzodlik, 1986-yilda O’zbekistonning asal resurslari va ulardan oqilona foydalanish yo’llari (Медоносные ресурсы Узбекистана и пути их рационального использования) mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan [2].

1991-yildan to umrining so’ngigiga qadar Farg’ona davlat universiteti Botanika va biotexnologiya kafedrasida professor lavozimida faoliyat olib bordi. Olim ushbu davr mobaynida ko’plab shogirdlar tayyorladi, talabalar uchun Botanika fanining asosiy yo’nalishlaridan bo’lgan, dorivor, yem-xashak va asal shirali o’simliklar bo’yicha ko’plab ma’ruzalar o’qidi. Faoliyati davomida kafedra dotsenti, 1991-1996-yillarda yangi tashkil etilgan Regional ekologiya va tabiat muhofazasi kafedrasini mudiri, 1996-2005-yillarda professor, 2005-2010-yillarda mudir, 2010-yildan umrining so’ngigiga qadar professor lavozimlarida ishlagan [1].



Chapdan o’ngga FarDU biologiya yo’nalishi talabalari, professorlar: A. Maxmedov va G’Xamidov bilan dala amaliyoti davrida. M.X.Akbarovning shaxsiy arxividan olingan fotosuratlar (Shoximardon, 1993)

G'ulom Xamidovich ilmiy faoliyati davomida 9644 turdagi asal o'simliklari va nektar olish usullarini, shuningdek, asal o'simliklarining 100 dan ortiq yangi turlarini aniqlagan. O'zbekistonda 63 oila, 295 turkumga mansub 958 tur yovvoyi o'simliklar borligi aniqlangan. O'zbekistonning Asalarichilik sohasidagi xalqaro kongresslarda qatnashgan. 1987-yilda "O'zbekistonning asal-shirali o'simliklari va ulardan oqilona foydalanish yo'llari" nomli monografiyasi chop etildi.

Mamlakatimizning qator hududlarida yetishtirilayotgan o'rta va nozik tolali g'o'za navlarining nektar-asal mahsuldorligini o'rganish natijasida o'rta tolali navlariga nisbatan nozik tolali g'o'za navlarida nektar miqdori 3 baravargacha yuqori ekanligi isbotlangan.

Olimning keyingi yillardagi eng katta ishlaridan biri "Farg'ona vodiysi dorivor o'simliklari, ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish" hammualliflikda monografiyasi 2014-yilda chop etilgan.

G'ulom Xamidovich Farg'ona vodiysining florasini va o'simliklar tarkibi, o'simliklar geografiyasi, o'simliklar qoplami, dorivor va asal-shirali o'simliklar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga bag'ishlangan 100 ga yaqin maqola va tezislari, 10 dan ortiq gazeta va ilmiy-ommabop nashrlarda, 30 dan ortiq risola va monografiyalar muallifi.

Biologiya fanlari doktori, professor G'ulom Xamidovich Xamidov 2024-yil 6-mart kuni 88 yoshida Farg'ona shahrida vafot etdi. Ustozimiz professor G'ulom Xamidovichning yorqin xotirasi qalblarimizda mangu saqlanib qoladi!



Botanika kafedrasi professor-o'qituvchilari. Chapdan o'ngga 1-qatorda: Z.Yusupova, G'Xamidov, V.Maxmudov, M.Davidov, 2-qatorda: M.Akbarova, M.Yuldasheva, Q.Maxsudov, Sh.Qoriyeva, U. O'lmasova. M.X.Akbarovning shaxsiy arxividan olingan fotosuratlar (Farg'ona, 2018)

G'. Xamidovning asosiy ilmiy ishlari ro'yxati

Хамидов Г.Х. Мелисса лекарственная в Узбекистане // Пчеловодство. 1967. № 3. – С. 40.

Хамидов Г.Х. Новые нектароносные-пыльценосные растения юго-западного Тянь-Шаня // Узбекский биологический журнал. – Ташкент. 1970, № 2. – С.42-44.

Хамидов Г.Х. Нектаропродуктивность широко распространенных растительных сообществ бассейна верховья реки Чирчик // ДАН Узбекской ССР. – Ташкент. 1971. Вып. 1. – С. 55-56.

Рахманов К.Р., Бутков А.Я., Хамидов Г.Х. О видовом составе медоносно-перганосных растений Арсланбабского массива Южной Киргизии // Растительные ресурсы. 1971. Т.7, Вып. 1. – С. 106-109.

BIOLOGIYA

- Хамидов Г. Медоносные растения в Узбекистане. – Ташкент, Изд-во ЦК КПУз, 1971. – 24 с.
- Хамидов Г.Х. Дикорастущие медоносные растения Зарафшанской долины // Узбекский биологический журнал. – Ташкент. 1975. № 2. – С. 51-53.
- Хамидов Г.Х. Новые данные о нектаропродуктивности каперса колючево в условиях Келесских адыров // ДАН Узбекской ССР. – Ташкент. 1972. Вып. 9. – С. 49-50.
- Хамидов Г.Х. Новые медоносные растения Зарафшанской долины // ДАН Узбекской ССР. – Ташкент. 1976. Вып. 1. – С. 53-54.
- Мухаметзанова Р., Хамидов Г. Масличные и медоносные культуры // Пчеловодство. 1977. № 9. – С. 23-25.
- Хамидов Г.Х., Салихов С.А. О нектаропродуктивности *Alcea rosea* в условиях культуры // ДАН Узбекской ССР. – Ташкент. 1977. Вып. 11. – С. 64-65.
- Хамидов Г.Х. Определение нектаропродуктивности хлопчатника // Пчеловодство. 1981. 11. – С. 15-16.
- Хамидов Г.Х. Медоносные растения Ферганской долины // Узбекский биологический журнал. – Ташкент. 1982. № 5. – С. 33-34.
- Хамидов Г.Х., Лакаткин И.П., Юнусова Х.К. Нектаропродуктивность новых перспективных сортов хлопчатника // ДАН Узбекской ССР. – Ташкент. 1982. Вып. 6. – С. 64-65.
- Алланазарова У., Бутков А.Я., Хамидов Г.Х. Горные лиственные леса и кустарники мезофильного склада – *Therodendra* II. Растительный покров Узбекистана, Ташкент, 4. 1984.
- Хамидов Г.Х. Медоносные ресурсы Узбекистана и пути их рационального использования. Автореферат дис.док. биол. наук. – Ташкент. АН Уз. ССР, Инст. ботаники. 1986. – 48 с.
- Хамидов Г.Х. Медоносные растения Узбекистана и путь их рационального использования. Ташкент: Фан. 1987. – 127 с.
- Хамидов Г.Х., Музафарова З. Сообщества *Ribes meyerii* в растительном покрове Западного Тянь-Шаня // Узбекский биологический журнал. – Ташкент. 1990. № 3. – С. 3-4.
- Xamidov G., Koratoyeva Ch., Zokirov P. *Perovskia turkumiga* oid turlarning gulshira ajratishiga doir // O'zR FA Ma'ruzalari. – Toshkent. 1994. №7. – С. 48-49.
- Хамидов Г.Х., Koratoyeva Ch. *Perovskia scrophulariifolia* o'simligining ba'zi bioekologik xususiyatlari // O'zbekiston biologiya jurnali. 1996. №5. – С. 48-49.
- Давидов М., Хамидов Г., Махмудов В. Биология цветения и плодоношения некоторых сортов арбуза. In Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов. 2013. – С. 36-38.
- Ҳамидов Ғ.Ҳ., Маҳсудова Р.С., Маҳмудов М.Ҳ. Фарғона водийсининг доривор ўсимликлари, улардан самарали фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. Фарғона, 2015. – Б. 203.
- Хамидов Г.Х., Давидов М.А., Акбарова М.Х., Холикулов М.Р. Медоносные растения и развитие пчеловодства. Фергана: Poligraf Super Servis, 2019. 156 с.
- Хамидов Г.Х., Холикулов М.Р. Каперсы колючие (*Capparis spinosa* L.) важное медоносное растение // Научный вестник Наманганского государственного университета. 2020. № 3. С. 165–170.
- Холикулов М. Р., Хамидов Г. Х. Флористический состав медоносных растений Ферганской долины и пути их рационального использования и охраны // Научное обозрение. Биологические науки. 2022. – № 1. – С. 44-49.
- Рўзиматов Р.Ё, Ҳамидов Ғ.Ҳ. Фарғона водийсининг муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлари флорасининг ўрганилиш тарихи // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2022. № 11/1. – С. 83-87.
- Ruzimatov R.Y., Xamidov H.G', Turdiboyev O.A. *Astragalus rubellus* Gontsch. – Farg'ona vodiysining kamyob va endem turi // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2023. № 12/1. – С.52-56.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Коллектив. (1996) Илм чоррахаларида. ФарДУ илмий хабарлари. – С. 152-153.
2. Пратов, Ў.П., Маркова, Л.Е., Холмухамедова, Р.А. (1997). Ўзбекистоннинг ботаник олимлари. – Тошкент. – С. 67-68.